

## HAZRATI ALI HAQIDAGI QISSALARDA SYUJET TIPLARI VA BADIY DETALLAR

**Farruh Bafoyev,**

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti,  
Orcid: 0009-0000-4180-8039  
Elektron pochta: [farruxshod@mail.ru](mailto:farruxshod@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada hazrati Ali haqidagi o'zbek va turk xalq qissalarida uchraydigan syujet tiplari hamda badiiy detallar tahlil qilinadi. Tadqiqotda qissalar syujetining shakllanishi, rivojlanishi va kompozitsion qurilishida muhim o'rin tutuvchi badiiy detallar va an'anaviy unsurlar yoritiladi. Shuningdek, o'zbek va turk qissalari qiyosiy tahlili asosida syujet tiplarining umumiy hamda farqli jihatlari aniqlanib, badiiy detallarning voqealar rivoji va qahramon obrazini yaratishdagi funksiyasi ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** xalq qissasi, hazrati Ali, syujet tipi, badiiy detal, syujet, o'zbek va turk qissalari, qiyosiy tahlil.

**Аннотация.** В данной статье анализируются сюжетные типы и художественные детали, встречающиеся в узбекских и турецких народных повестях о Хазрате Али. В исследовании освещаются художественные детали и традиционные элементы, играющие важную роль в формировании, развитии и композиционном построении сюжета повестей. Кроме того, на основе сравнительного анализа узбекских и турецких повестей выявляются общие и отличительные особенности сюжетных типов, а также показывается функция художественных деталей в развитии событий и создании образа героя.

**Ключевые слова:** народная повесть, Хазрат Али, сюжетный тип, художественная деталь, сюжет, узбекские и турецкие повести, сравнительный анализ.

**Abstract.** This article analyzes the plot types and artistic details found in Uzbek and Turkish folk tales about Hazrat Ali. The study examines artistic details and traditional elements that play an important role in the formation, development, and compositional structure of the plots of these tales. Furthermore, based on a comparative analysis of Uzbek and Turkish folk tales, the common and distinctive features of plot types are identified, and the functions of artistic details in the development of events and the creation of the hero's image are demonstrated.

**Keywords:** folk tale, Hazrat Ali, plot type, artistic detail, plot, Uzbek and Turkish folk tales, comparative analysis.

**Kirish.** Hazrati Ali obrazi turkiy xalqlar folklori va xalq qissalari an'anasida alohida o'rin egallaydi. U haqdagi qissalarda diniy-ma'rifiy, qahramonlik va sarguzasht mazmunidagi voqealar o'zaro uyg'unlashib, o'ziga xos syujet tizimini yuzaga keltirgan. Shu bois mazkur qissalarning syujet qurilishi va unda qo'llanilgan badiiy detallarni o'rganish xalq qissalari poetikasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hazrati Ali haqidagi o'zbek va turk qissalarida syujet tiplari hamda badiiy detallar muayyan an'analar asosida shakllangan bo'lib, ular voqealar rivoji, qahramon xarakterining ochilishi va asarning g'oyaviy mazmunini ifodalashda muhim vazifa bajaradi.

Mazkur xalq qissalarini syujetiga ko'ra ikkiga ajratish mumkin. Birinchi tipga sof tarixiy voqeliklar aks etgan qissalarni, ikkinchi tipga folkloriga, xususan, xalq ertaklariga xos fantastik tasvirlar, voqealar, qahramonlar bilan bog'liq sarguzashtlar haqida so'z

yuritiluvchi to‘qima syujetga asoslangan qissalarni kiritish mumkin. Birinchi tipdagi qissalarga asos bo‘lgan voqealar islom tarixida ma’lum va mashhur, ularning tafsilotlarini islom tarixiga oid deyarli barcha manbalarda uchratish mumkin. Masalan, ularga Xandaq g‘azoti, Uhud jangi, Haybar jangi kabilarni misol keltirish mumkin.

**Adabiyotlar tahlili.** Ikkinchi tipdagi qissalarga “Hazrati Alining imom Muhammad Hanifani xalos etishlari”, “Hazrati Alining Imloqni mahv etishlari”, “Ajdar devning hazrati Ali tomonidan halok etilishi”, “Jangnomai fathu-l-islom”, “Hazrati Ali tomonidan Anqoning o‘ldirilishi” kabilarni kiritish mumkin. Mazkur qissalarda mifologik qahramonlar: pari, dev, ajdar kabilar qahramon oldidan chiqadigan to‘siq, sinov, raqib qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Voqealar davomida chiqadigan muayyan detallar yangi sarguzashtlarga sabab bo‘ladi. Masalan, qissalarning aksariyatida voqealar rivojiga qahramon yo‘lida uchraydigan xayma, ya’ni chodir sabab bo‘ladi va u qahramonni yechim tomon yetaklaydi. Chodir detalini “Hazrati Ali tomonidan Qattolning o‘ldirilishi”, “Hazrati Alining imom Muhammad Hanifani xalos etishlari”, “G‘ushom ibn Xushomning hazrati Ali tomonidan halok etilishi” kabilarda kuzatish mumkin. Ularning aksariyatida qahramon tutqunlikdagi, jabr ko‘rgan qiz, butlarga sajda qilayotgan parilar, jabr chekkan kampir kabilarni uchratadi va ular keyingi voqea uchun ochqich vazifasini o‘taydi. Masalan, “Hazrati Alining imom Muhammad Hanifani xalos etishlari” qissasida yo‘lda adashib qolgan imom Muhammad suv izlab, bir xaymaga duch keladi. Oldiga kelib qarasa, chodir ichida bir parini uchratadi. Uni yoqtirib qoladi. Ammo u boshqa bir pahlavonning qo‘l ostida bo‘lib, u o‘sha paytda hazrati Alini o‘ldirish uchun ketgan edi. Shu tariqa voqealar rivojlanib, yangi-yangi sarguzashtlarga yo‘l ochiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda hazrati Ali haqidagi o‘zbek va turk xalq qissalari qiyosiy-tipologik hamda struktur-semantik metodlar asosida tahlil qilindi. Qissalarning syujet qurilishi, motivlar tizimi va badiiy detallari o‘rganilib, ularning voqealar rivoji hamda qahramon obrazini yaratishdagi funksiyasi aniqlandi. Shuningdek, o‘zbek va turk qissalari qiyosiy tahlil qilinib, syujet tiplari va badiiy detallarning umumiy hamda o‘ziga xos jihatlari yoritildi.

**Tahlillar va natijalar.** Mazkur turkumdan o‘rin olgan “Hazrati Ali tomonidan Qattolning o‘ldirilishi” qissasida esa chodir bilan bog‘liq boshqa bir voqea hikoya qilinadi. Qissada otasidan jabr ko‘rgan shahzodaga yordam berish, otasidan o‘ch olish uchun yo‘lga chiqqan Muhammad alayhissalom boshchiligidagi musulmon lashkarlari sahroda suvsizlik muammosiga duch keladilar. Askarning yanada holdan toyishini istamagan Payg‘ambar hazrati Ali bilan suv izlab yo‘lga tushishadi. Biroz yo‘l yurganlaridan keyin esa bir xayma, ya’ni chodir ko‘zga tashlanadi. Chodir oldiga borishganda esa “Ey but, mani murodimni bergil, vagarna sandin qaytarman” – deb yolvorayotgan kampirga duch kelishadi. O‘zlarini tanishtirishgandan keyin, kampirdan suv so‘rashadi. Kampir uyda suv yo‘qligini aytadi. Uyda bir echki ham bor edi. Hazrati Ali kampirdan echkisini suti bor-yo‘qligi haqida so‘raydi, kampir esa echkisi qari ekanligi, sut berish u yoqda tursin, azbaroyi qariligidan

sahroga ham borolmasligini soʻzlab beradi. Xuddi shu joyda voqealar boshqacha tus oladi: “Sayyidi olam sallallohu alayhi vasallam muborak qoʻllari bilan ul buz (yaʼni echki) ni orqasini siladilar. Darhol farbeh (yaʼni semiz) boʻldi. Pistoni toʻla sut boʻldi. Kampir bu holdi koʻrib, mushohada qildi. Darhol aydi, “Omanno va saddoqno”, siz Paygʻambari barhaq ekansiz, - deb butni olib yerga urdi. Iymon kelturub musulmon boʻldi”.[4.71] Qissada kampir bilan bogʻliq voqea shu joyda yakun topadi. Koʻrinib turganidek, xayma voqeasi Paygʻambarning fazilati, barokati, moʻjizasini ochib berish, eshituvchiga zarbulmasal qilish uchun bir kichik vosita vazifasini oʻtagan. Oriq qoʻylarning Paygʻambarning barokati bilan sut berishi “Hazrati Ali tomonidan Anqoning oʻldirilishi” qissasida ham uchraydi. Qissada uch kun yoʻl yurib, suv topolmagan islom lashkari oldidan qoʻylarini boqib yurgan Ammasaro ismli choʻpon yigit chiqadi. Undan suv soʻralganda, yaqin atrofda birgina chashma borligini, ammo uning oldidagi daraxtda bir ajdar qoʻnim topgani, kimki suv ilinjida yaqinlashsa, oʻz domiga tortishi, shu sabab oʻzida ham, qoʻylarida ham majol yoʻqligini aytadi. Choʻponning izni bilan Muhammad alayhissalom qoʻylarni sogʻib koʻrganlarida, sutdan qolgan, ozgʻin qoʻylarga shu qadar barakali sut paydo boʻladiki, hamma lashkarlar suv oʻrniga sut ichishadi. Buni koʻrib, Ammasaro imon keltirib, musulmon boʻladi. Asarga bu kichik voqea shunchaki badiiy toʻqima oʻlaroq olib kirilmagan. Bu hodisa “Paygʻambar moʻjizalari va sahobalar karomatleri” kitobida quyidagicha hikoya qilinadi: “Yoʻlda Nabiy sollallohu alayhi vasallam va Abu Bakr roziyallohu anhu chanqab Ummu Maʼbad Xuzoʻiyaning oldiga tushdilar. U Makkadan Madinaga ketish yoʻlida bir chodirda yashar edi. Undan sotib olish uchun goʻsht va xurmo soʻradilar. Lekin huzurida hech narsa yoʻq edi. Oʻsha davrda u yerdagi aholi qahatchilik va qurgʻoqchilikdan qiynalar edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam tasodifan oʻlar holatga kelib qolgan, yelini qurigan bir qoʻyga nazar soladilar. Shunda Nabiy sollallohu alayhi vasallam u (Ummu Maʼbad) ga aytdilar:

- Ey Ummu Maʼbad, bu qanday qoʻy?
- U nimjon qoʻy.
- Uning suti bormi?
- Uning suti yoʻq.
- Menga uni sogʻishga izn berasanmi?
- Ota-onam sizga fido boʻlsin. Agar unda sut koʻrsangiz, sogʻaering (Tabaroniy rivoyati).

Rasululloh sallallohu alayhi vasallam qoʻy yelinini silab, duo qilganlaridan soʻng qoʻyni sogʻib Ummu Maʼbadga, soʻng Abu Bakrga berdilar. Soʻng oʻzlari ichdilar. Ketayotganida yana Ummu Maʼbadga sogʻib berdilar.[7.145-146] “Shamoili Muhammadiya”da ham Muhammad alayhissalomning sutning barakasi va uning taom hamda yeguliklar oʻrniga oʻtadigan ichimlik ekanligi haqidagi hadis keltirib oʻtiladi.[5.132-133] Koʻrinib turganidek, yuqoridagi hadislardan xabardor boʻlgan

qissaxon o'z eshituvchilariga uni qissadagi bir kichik epizod orqali o'ziga xos tarzda yetkazib, diniy bilimni ham oshirib ketadi.

Qissalar syujeti bilan bog'liq yana bir o'ziga xoslik ularning ikki xalq orasidagi versiyalarida ko'zga tashlanadi. "Xaybar" qissasining o'zbek versiyasi qal'aning fath etilishi bilan o'z nihoyasiga yetib, asarga yakun yasalsa, qissaning turk versiyasi yangi voqealar bayoni bilan davom etadi. Xususan, musulmon lashkarining g'azotdan qaytishda sahroda bir kiyikni uchratishi, uning ortidan hazrati Alining quli Qanbarning yo'l olishi, uning asli Xaybar beklaridan bo'lgan, Muhammad alayhissalom va hazrati Alini o'ldirish uchun Madinaga ketgan va ammo ularni topa olmay ortga qaytayotgan Hishom ibn Gishom (o'zbek versiyasida G'ushom ibn Xushom) qo'lida asir tushishi, hazrati Alining Qanbari izlab yo'lga tushishi va uni qutqarishi bilan bog'liq tafsilotlar bayoniga ulanib ketadi. Xaybar podshohlaridan birining qizi Zulxumor, unga oshiq bo'lgan Alqama, Alqamaning otasi Hantala kabilar bilan bog'liq sarguzashtlar qissa voqealarining yanada boyishiga yordam bergan. E'tiborli jihati shundaki, Xaybar fathidan keyin yuz bergan ushbu voqealar turkcha versiyada Xaybar qissasiga ulansa, o'zbek folklorida esa ushbu voqealar "Hazrati Ali jangnomasi"ning sakkizinchi qissasi bo'lgan "G'ushom ibn Xushomning hazrati Ali tomonidan halok etilishi" nomli alohida mustaqil asar sifatida yuzaga kelgan va tarqalgan. Bizningcha, bu holat mazkur qissalarning ijrosi bilan bog'liqdir. Ya'ni turklarda "Xaybar" qissasi syujetining davomi sifatida bilingan va ijro qilingan. O'zbek qissachiligida esa alohida asar sifatida tarqalgan. Mohiyatan esa "Xaybar" qissasi qal'aning to'liq fath etilishi, jamoaning islomni qabul qilishi, asirlarning taqsimlanishi kabilar bilan mazmunan yakun topadi, chunki fathdan ko'zlangan maqsad shu yerning o'zida bajarilgan, qissa nomining ham aynan "Xaybar jangi" deb nomlanishining o'zi fikrimizni quvvatlaydi. "G'ushom ibn Xushomning hazrati Ali tomonidan halok etilishi" qissasi esa alohida boshlanma va tugallanmaga ega bo'lgan alohida sarguzasht hisoblanadi. Shu ma'noda mazkur qissalarga o'zbekcha versiyalaridagi singari alohida asar sifatida qarash to'g'ri bo'ladi.

Hazrati Ali haqidagi qissalar syujetining umumiy tuzilishida "mazlumning yordam so'rab kelishi", "safar", "shart-sinov", "tush" motivlari turlicha joylashganini ko'ramiz. Ushbu holatni bir necha qissalar misolida ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, "Hazrati Ali tomonidan Qahqahaning o'ldirilishi" qissasida quyidagicha syujetning liniyasini kuzatish mumkin: boshlanma – "mazlumning yordam so'rab kelishi" motivi – "tush" motivi – yordamchi qahramon "safar"i motivi – bosh qahramon "safar"i motivi – "tush" motivi – "jang" motivi va yakun. Yoki "Otashparast Zampirning Hazrati Ali qo'lida halok bo'lishi" qissasida syujet quyidagicha joylashgan: boshlanma – "mazlumning yordam so'rab kelishi" motivi – "tush motivi" – yordamchi qahramon "safar"i motivi – asosiy qahramon "safar"i motivi – yechim va tugallanma. Xuddi shu qissaning turkcha versiyasi sanalgan "Hâzâ Gazâvât-ı İmam Ali Kal'ayı Berber Bâ Zümür Ateşperest" (İmam Ali'nin Berber Kalesi Cengi) qissasida esa syujet quyidagicha tuzilishga ega: boshlanma –

“mazlumning yordam so‘rab kelishi” motivi – yordamchi qahramon “safar”i motivi – asosiy qahramon “safar”i motivi – yechim va tugallanma. Ko‘rinadiki, ushbu qissada syujet bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Birida mazlumning muammosi tashqi ko‘rinishi, jarohatlari orqali anglansa, ikkinchisida vahiy vositasida bilinadi. O‘zbek qissasida Barbar shohning o‘g‘li tushi vositasida imon keltirib musulmon bo‘lsa, turk qissasida nasroniy rohib ustoz ta‘limi vositasida haqni anglab, islom diniga qiziqib qoladi va ustozining yolg‘on gaplariga qaramay, Injildagi Muhammad alahissalom ta‘rifini eshitib, yashirincha islomni qabul qiladi. Ko‘rinadiki, bu kabi qissalarning umumiy mazmuniy mundarijasi bir xil bo‘lsa-da, syujet keskin farq qiladi.

Shu o‘rinda yana bir holatni qayd etish joizki, yuqorida tilga olingan “mazlumning yordam so‘rab kelishi” motivi bilan boshlangan qissalarda syujet kompozitsiyasi tugundan boshlanib, shu asosda rivojlanadi. Boshqa qissalarda esa an‘anaviy kompozitsiyaga amal qilinadi. Shunga ko‘ra, qissalarni an‘anaviy va noan‘anaviy kompozitsiyaga ega asarlarga ajratish mumkin. Qissalar kulminatsiyasi, odatda, raqibning xatosini tan olishi, musulmonlikni qabul qilishi bilan yakun topadi. Ammo asosiy shart bo‘lgan imon keltirish, qissalarning versiyalarida turlicha kechadi. Masalan, qissalarning turkcha versiyalarida Amr, Anqo shah, Gerdush, Molik ibn Avf tush ko‘rishi orqali musulmon bo‘lsa, Molik Ashtar butdan ilohiy bir ovozning kelishi bilan, Abul-Hasan qalbiga farishtalarning ilhom berishi hamda Qur‘on ovozi bilan, Abu Sufyon, Shayba o‘g‘li, Muhammad alayhissalomning da‘vati bilan islomni qabul etsa, jangnomalardagi jangchi, jangovor xarakterli Jumhur, Molik Ajdar, Tarraqi Zangi, Muqotil kabi qahramonlar jang davomida hazrati Alining kuchi qarshisida ojiz qolib, qahramonliklari sabab islomni qabul qiladi.[6.193] Albatta, bu kabi turfaliklar qissalarning o‘zbek va turk variantlari uchun ham xosdir. Ya‘ni muayyan bir asarlardagi syujet mazmuni ularning ikki xalqdagi variant va versiyalari orasida ham farqlanishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, “Otashparast Zampirning hazrati Ali qo‘lida halok bo‘lishi” qissasining o‘zbek versiyasida shoh o‘g‘li islomni tushi vositasida anglab, musulmon bo‘lsa, turk versiyasida Injil ta‘limi orqali haqiqatni anglab, imon keltiradi.

Qissalar syujetida turkumlilikka xos bo‘lgan tizim, mantiq saqlangani qahramonlar harakati va dialoglarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, o‘zbek folkloridagi “Uhud qissasi” yakunida Xolid ibn Validning janglar vositasida imon keltirgani haqida hikoya qilinsa, boshqa qissalarda u musulmonlar safida, g‘azotlarda ishtirok etadi. “Maqsuraning hazrati Ali qo‘lida halok bo‘lishi” qissasida esa Xolid ibn Validning Uhud jangida musulmon bo‘lganligi eslatib o‘tiladi. Bu holatni o‘zbekcha “Moliki Ajdar” qissasi va uning turkcha versiyasi bo‘lgan “Kissa-ı Kal'a-ı Selasil ve Şah-ı Merdan'un Cengidür” asarida ham kuzatamiz. Yoki “Hâzâ Gazâvât-ı İmam Ali Kal'ayı Berber Bâ Zümür Ateşperest” qissasida yahudiy Sham'un vazir tilidan “Xayber” jangnomasida yuz bergan hazrati Alining qal'a darvozasini qo‘porib olib otishi voqeasi esga olinib, shohga bunday dushmandan ehtiyot bo‘lish kerakligi ta‘kidlanadi. Yoki “Hazrati Alining Imloqni mahv

etishlari” qissasining turkcha versiyasi hisoblangan “Muhammed Hanife Gazâsi” jangnomasining boshlanmasida Muhammad Hanifaning sarguzasht izlab yo‘lga chiqish istagi haqida so‘z yuritilar ekan, “Hazâ Gazâvât-ı Muhammed Hanife Bâ Gazanfer Kafir - Aleyhi-Lane” qissasidagi jangi eslanadi.[3.405] Ko‘rinadiki, qissalarning har biri alohida asarlar sanalsa-da, syujet mazmunidagi mantiq saqlanib, o‘ziga xos tizimni tashkil qiladi. Ya’ni bir qissadagi ma’lumot ikkinchisini inkor etmaydi, aksincha to‘ldiradi. Bu holat qissalarning ham o‘zbek, ham turk versiyalari uchun xosdir.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, hazrati Ali haqidagi xalq qissalari syujeti, o‘ziga xos mazmuni, motivlar tizimi va kompozitsion qurilishi bilan xalq nasrining boshqa janrlaridan ajralib turadi. Ularda uchraydigan syujet tiplari hamda badiiy detallar xalq qissalari poetikasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sanalib, voqealar rivoji va qahramon obrazining shakllanishida muhim vazifa bajaradi. O‘zbek va turk qissalarining qiyosiy tahlili ular o‘rtasidagi tipologik mushtarakliklar bilan bir qatorda milliy an’analar ta’sirida yuzaga kelgan o‘ziga xos jihatlarni ham aniqlash imkonini beradi. Hazrati Ali haqidagi qissalarni o‘rganish turkiy xalqlarning mushtarak ma’naviy merosini chuqurroq anglash, xalq qissachiligi an’analarini ilmiy jihatdan tadqiq etish hamda ushbu boy folklor namunalari keng targ‘ib qilib, kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Адабиётшунослик луғати / Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.288.
2. Hz. Ali cenkləri. Hazırlayan: N.Ahmet Özalp. – İstanbul, 2017.
3. Hazret-i Ali Cenkləri. Hazırlayan: İsmail Toprak. – İstanbul, 2016.
4. Ҳазрати Али ҳақидаги қиссалар / Нашр. Тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи: С.Рафиддинов. – Тошкент: Ёзувчи, 1992.
5. Имом Абу Исо Муҳаммад Термизий. Шамоили Муҳаммадия. 2-жуз. Таржима ва шарҳ муаллифи: Зиёвуддин Раҳим. – Тошкент: Matbaachi, 2023. – Б.132-133.
6. İsmet Çetin. Türk Edebiyatında Hazret-i Ali Cenknemeleri. – Ankara 1997. – S.193.
7. Муҳиддинов М. Пайғамбар мўжизалари ва саҳобалар қароматлари / М.Муҳиддинов; муҳаррир Алишер Назар. – Тошкент: Kitobdornashr, 2024. – Б.145-146.